

SHAROF RASHIDOVNING O'ZBEK ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI

Mahmudova Nodira G'ofurjon qizi

Toshkent shahridagi Prezident maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Maqolada o'zini kuchli rahbar va mohir diplomat sifatida ko'rsata olgan o'zbek xalqining qahramoni hamda atoqli davlat arbobi Sharof Rashidovning hayoti va ijodiga bir nazar tashlangan. Uning o'zbek adabiyotida tutgan o'rni haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: Muallim, muxbir, munaqqid, davlat arbobi, she'riy to'plam, adabiyot olami, "G'oliblar", "Bo'rondan kuchli"

Davr, zamonning yangilanish epkinlari ostida adabiyot olamiga yangidan yangi iste'dod egalari kirib kelaveradi. Ana shunday iste'dod egalaridan biri adib, yirik davlat arbobi Sharof Rashidovdir. U 1917-yilning noyabr oyida Jizzaxdagi mehnatkash dehqon oilasida tavallud topgan. Avval, Narimonov maktabida tahsil ko'rdi. 1934-yilda Jizzaxdagi pedagogika texnikumini, 1941- yilda Samarqand dorilfununini tugatadi. Shundan so'ng muallim va muxbir sifatida o'z faoliyatini boshlaydi.

Sharof Rashidov talabalik yillari o'qish bilan birgalikda Samarqandning "Lenin yo'li" ro'znomasida ham ishlaydi. Dorulfununni tamomlagach vatan himoyasiga otlanib, Ulug' Vatan urushida qatnashadi. Frontdan qaytgach, 1944- yillarda rahbarlik ishiga o'tadi. Samarqand viloyat partiya kotibi bo'lib faollik ko'rsatadi, 1947-1949-yillarda "Qizil O'zbekiston" ro'znomasiga muharrirlik qiladi. U o'z faoliyati davomida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi, O'zbekiston Oliy Kengashi Rayosatining raisi, hamda O'zbekiston Kompartiyasining Birinchi kotibi lavozimlarida ishladi. Toki umrining oxirigacha Respublika partiya tashkilotiga rahbarlik qildi. U o'n bir marta "Lenin ordeni", ikki marta "Mehnat qahramoni Oltin yulduzi" va Lenin mukofoti sovrindori ham bo'lgan.

Sharof Rashidovning o'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rni beqiyosdir. U davlat boshqaruvi jarayonida ham adabiyot gulshanini unutgani yo'q. Uning ijodi asosan 30-yillarning ikkinchi yarmida boshlangan bo'lib, dastlab she'riyatda qalam tebratgan. Uning birinchi she'riy to'plami "Samarqand kuylari" nomi bilan bositgan. So'ng esa "O'ljam", "Orzuyimiz" kabi she'rlari chop etilgan.

Sharof Rashidov Ulug' Vatan urushi davrida fashizmga qarshi g'alabaga yetaklovchi she'rlar yozib, "Qahrim" nomi bilan to'plam sifatida chop ettiradi. U ayni

chog‘da adabiyotshunos va munaqqid sifatida ham qalam tebratgan edi. U jang maydonlarida quyidagi misralar qatnashgan sher yozadi:

Agar jangdan qaytsam orqamga,
La’nat o‘qing, yashashim bekor.

Askar ushbu misralar orqali ona-Vatan dushmanlariga hamda fashizmga qarshi qahr-g‘azab tuyg‘ularini to‘kib sochadi.

Sharof Rashidov yillar davomida havaskor maqolanavislikdan — yetuk adib darajasiga ko‘tarildi. Adibning nasrchipilikdagi ulkan asarlari hisoblangan “G‘oliblar”, “Bo‘rondan kuchli”, “Qudratli to‘lqin” romanlarida O‘zbekiston xalqini urushdan keyingi tiklanish yillaridagi mehnat jasoratlari badiiy ifodasini topgan. Biz bu o‘rinda yozuvchi ijodida katta o‘rin egallagan “G‘oliblar” romani haqida so‘z yuritmoqchimiz. “G‘oliblar” romanini o‘qib Oyqiz bilan Olimjonning qizg‘in baxs-suhbati beixtiyor ko‘z o‘ngingizga keladi. Olimjon she’rday yodlab olgan va sevgilisiga zavq-la takrorlayotgan so‘zlarni eshitib turganday bo‘lasiz. “Stixiyaga qarshi kurashga ajoyib texnika quroli bilan kirishgan, tabiatga uni o‘zgartirish nuqtai nazaridan qarab ta’sir qilayotgan kolxozchidek tamomila yangi xil dehqonni barcha davr va xalqlarning dehqonchilik tarixi hech qachon ko‘rgan emas”.

Roman, Michurin aytganidek, xuddi ana shunday “yangi xil dehqonlar...” cho‘llarga suv chiqarib yangi bog‘-rog‘lar, ekinzor, paxtazorlar bunyod etayotgan azamatlarni tarannum etadi. Mehnatga yangicha munosabat, yangi hayot jozibasi, qahramonlarning fikr va tuyg‘ulari, ichki dunyosi, ikki yoshning musaffo muhabbatni haqqoni va shoirona tasvirlanadiki, Oyqiz, Olimjon, Jo‘rabyev, Umurzoq ota, Ivan Nikitichlarning yoqimli siymolari sira ko‘z oldingizdan ketmaydi. Oltinsoyliklarning g‘alaba tantanasiga beixtiyor ishtirokchi bo‘lib qolasiz.

Ijodkorning “Kashmir qo‘shigi”, “Komde va Mudan” kabi lirik qissalari an’anaviy Sharq dostonchiligi uslubida bitilgan bo‘lib, yoshlik, bahor, go‘zal hayot nashidasi madhiga bag‘ishlangandir.

Adibning “Dil amri” qissasi Ulug‘ Vatan urushi yillarida Belorusda kechgan jang manzaralari, turli millat jangchilarining g‘alaba yo‘lida olib borgan hayot-mamot kurashi tasviriga bag‘ishlangan. Ushbu asar uning hayotining so‘nggi yillarida yaratilgan durdona asarlaridan biridir.

Sharof Rashidov 1983-yilning kuzida to‘satdan vafot etdi. Sharof Rashidov Sho‘ro hokimiyati davrining barcha davlat arboblari singari vafotidan keyin qoralandi. Hayoti va ijodini o‘rganish ta’qilqandi.

Mustaqillik sharofati bilan kamtarin adib va davlat arbobining nomi qayta tiklandi.

Hozirgi kunda mustaqil O‘zbekistonda Sharof Rashidovning nomi hurmat-e’tibor bilan esga olinadi. O‘zini kuchli rahbar va mohir diplomat sifatida ko‘rsata olgan

o‘zbek xalqining qahramoni kamchiliklarga to‘la sovet boshqaruv tizimini o‘zbek xalqining o‘lmas rivoji uchun yo‘naltirgan.

Sharof Rashidov haqida qancha gapirsak, ko‘ngil tublaridan “Qani o‘sha xalq sevgan adib, qani o‘sha davlat arbobi” degan sas kelganday bo‘ladi. Shoyad xalq bor ekan, mana, yuz yildirki uning nomi o‘lmaydi, kitobxonlari yildan yilga ortib, uning asarlari sarchashmasidan ma’naviy chanqog‘ini qondiraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.Rashidov, “Sevgi bilan g‘olibman har on” she’rlar to‘plami, Toshkent-2020
2. S.Mirvaliyev, “O‘zbek adiblari” (xrestomatiya), Toshkent “Fan” nashriyoti 1993
3. F.Abdusamadov, A.Muzaffarov., “Sharof Rashidov hayoti, faoliyati, ijodi” tarixiy-adabiy ocherki, Toshkent-2017